

YANGI AVLOD DARSlikLARIDA LEKSIK INTERFERENSIYANING YORITILISH HOLATI

(6-SING INGLIZ TILI FANI DARSlik MISOLIDA)
MAMADJANOVA NOZIMAXON AZIMXODJAYEVNA

**Toshkent davlat pedagogika universiteti, v.b dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7644109>

Ma'lumki, bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitish va o'rganish ilmg'a intiluvchi har bir insonning ehtiyojiga aylangan. Bu borada qabul qilinayotgan bir qator qarorlar til o'rganuvchilarga yangi imkoniyatlarga yo'l ochmoqda. Xorijiy til fani o'qituvchilarga ustamalar, kirish imtihonlarida sertifikatga ega bo'lgan abiturentlar uchun xorijiy til bo'yicha maksimal ballar qo'shib berilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-son qarori ushbu masalaning ahamiyatini yanada oshiradi [1]. Qarorda belgilanganidek, umumta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish, darsliklarni sodda va tushunarli tilda tayyorlash borasida Kembridj universiteti nashriyotining darsliklari 2022-2023 o'quv yilidan boshlab maktablarda joriy etildi.

Umumta'lim maktablarining 6-sinflari uchun mo'ljallangan ingliz tili darsligi "Guess What" deb nomlanib, zamonaviy darsliklarning dizayni, rasmlarning qiziqarli, tushunarli va mavzuga mosligi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi. Darslikdagi har bir bo'lim 6 ta asosiy darslarga taqsimlangan bo'lib, birinchi uchta darsda til materiallari, keyingi uchta darsda esa nutq faoliyati turlari bo'yicha darslar mavzulashtirilgan. Jumladan, birinchi darsda yangi leksik birliklar, ikkinchi va uchinchi darslar grammatik va talaffuz qoidalari induktiv usulda, to'rtinchi dars o'qish, beshinchi dars tinglab tushunish va gapirish, oltinchi dars esa o'qish va yozish faoliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu darslikning e'tiborli jihati shundaki, o'qish uchun berilgan matnlar kundalik hayot uchun kerak bo'lgan ma'lumotlar bo'lib, ular o'quvchilarni hayotga tayyorlashga xizmat qiladi. Turli vaziyatlarda yo'l topish usullarini o'rgatadi. Darslikning ish daftari esa o'quvchilar olgan bilimlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Ushbu maqolada biz 6-sinflari uchun mo'ljallangan "Guess What" ingliz tili darsligida leksik interferensiya hodisasining yoritilish holatini tahlil qilamiz. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 6-sinfda o'quvchilar leksik interferensiya hodisasining turli ko'rinishlariga har darsda duch kelishadi. Tahlillar natijasini jadval asosida yoritishni ma'qul ko'rdik.

6-sinf ingliz tili darsligida leksik interferensiya hodisasining mavjud holati

#	Leksik interferensiyaning holatlari	Darslikda leksik interferensiyaning yuzaga keltirgan so'zlar	Leksik interferensiya yuzaga kelgan bo'lim va sahifa
1.	Sinonimlar	Backpack-rucksack, flashlight-torch,	1-bo'lim 16-bet
2.	So'z birikmalarining tarjimasida	Do acrobatics, do cartwheels, do tricks, play instruments, do street dancing	2-bo'lim 26-bet
3.	So'zlarning milliy bo'yog'i	Curry, dumplings, kebabs, paella, sushi, tacos	3-bo'lim 38-bet

		Clarinet, cymbals, drum, electric guitar, flute, keyboard, saxophone, trombone, trumpet, violin	4-bo'lim 48-bet
4.	Internasional so'zlar	Encyclopedia, website, online, email	5-bo'lim 60-bet
		Aluminum, electricity, gas, plastic.	6-bo'lim 70-bet
		Astronaut, Mars, planet, laboratory, station.	7-bo'lim 82-bet
		Clown, costume, dragon, mask, pirate, musician	8-bo'lim 92-bet
5.	Tarjimaning "Yolg'on do'stlar"i	Artist, magazine	8-bo'lim 92-bet

Jadvalda ko'rinadiki, 6-sinfning ingliz tili darsligida leksik interferensiyaning beshta holati, sinonimlar, so'z birikmalarining tarjimasi, so'zlarning milliy bo'yog'i, internacional so'zlar va tarjimaning yolg'on do'stlari" da namoyon bo'ldi. Leksik interferensiyaning yuzaga keltirgan leksik birliklarning salmoqli qismini barcha tillarda birdek tushuniladigan internacional so'zlar tashkil etdi. O'quvchilar bu kabi so'zlarni o'zlashtirishlari jiddiy qiyinchilik tug'dirmaydi. Keyingi o'rinda so'zlarning milliy bo'yog'i bo'lib, bunda milliy realiyalarni haqiqiy buyumlar yoki ularning rasmlari, ta'riflarini keltirish orqali o'rgatiladi. Bu kabi so'zlar o'quvchilarning madaniyatida va ijtimoiy turmushida kam uchragani sababli, ularning mustahkamlashga bir qator mashqlarni berish o'z samarasini beradi. So'z birikmalarining tarjimasida ham o'quvchilar ko'p hollarda chalg'ishlari kuzatiladi. Fe'llarning qaysi ma'noda kelishini fe'l oldidagi ot ustunlik qiladi. Masalan, "do homework-uy vazifasini bajarmoq" birikmasida "do" fe'li o'zining asl ma'nosida, ya'ni qilmoq, bajarmoq ma'nosida keladi. "Do acrobatics-akrobatika bilan shug'ullanmoq" birikmasida esa "do" fe'li shug'ullanmoq deb tarjima qilinadi. Bunday holatda o'quvchilar matn ma'nosidan birikmadagi fe'llarni ma'nosini izlashga harakat qilishlari lozim. O'quvchilarni tahlili fikrlashga o'rgatuvchi vazifalar bunday qiyinchiliklarni oldini olishga va uni bartaraf etishga yordam beradi deb hisoblaymiz.

Shunday ekan, darslikda berilayotgan leksik interferentiv qiyinchiliklarning holatlari o'qituvchi tomonidan darsga tayyorgarlik bosqichida aniqlanishi, oldini olishga qaratilgan metodlar, mashq va topshiriqlarni to'g'ri tanlashi o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/-5431845?ONDATE=03.08.2022>